

IJTIMOIIY-GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mansurova Iroda Nosirali qizi

mansurovairoda1991@gmail.com

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi

mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: pedagogik faoliyat jarayonida kreativlik va kreativ komponentlik kabi xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Har bir o'qituvchi o'z faoliyatini amalga oshirishda yaratuvchanlik, ta'lim jarayonida o'z sohasiga yangilik kiritish olishi lozim. O'qitish jarayonida kreativlikni qo'llash uchun ba'zi muamolarga va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ushbu maqola jarayonida ushbu muamolar o'rganib chiqiladi hamda ushbu muamolarga mubohil yechimlar taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kreativlik, ijodkorlik, kreativ yondashuv, ilmiy faoliyat, pedagog, Akmeologik yondashuv, novatorlik,

Kirish. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida davlat va jamiyatni rivojlantirish uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish; pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish; ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Oliy ta'limning sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy metodik tayyorgarligi va kompetentligini takomillashtirish ta'lim siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal qilishni ta'minlaydigan tizimli o'zgarishlarning umumiy asosidir.

Oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish davlat va jamiyat buyurtmasi bo'lib, ularning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim muassasalarining ehtiyojlari, o'qituvchining kasbiy ehtiyojlari, kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish, kasbiy o'sish, o'zini ijodiy namoyon qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim sub'ektlariga qo'yiladigan talablarni bajarish uchun zamin

yaratishini hisobga olgan holda tadqiqot ishimiz vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ kompetentligini pedagogik muammo sifatida tahliliy o'rganish;
- oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligi tuzilmasini aniqlash;
- kreativ kompetentlikning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish; uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish;
- “lifelong learning” tamoyili asosida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish; kreativ (divergent, konvergent va loteral) fikrlash ko'nikmalari asosida shakllanadigan kreativ kompetentlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlarini tasniflash;
- kreativ kompetentlikning indikatorlarini aniqlash;
- ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining shaxsiy-kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash tamoyillarini ishlab chiqish, raqamli ta'lim va an'anaviy gumanitar fanlar integratsiyasi sharoitida uzluksiz malaka oshirishning (rasmiy, norasmiy va informal ta'lim asosida) mohiyatini ochib berishdan iborat bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili:

Tanlangan tadqiqotimiz muammosi kreativ kompetentlik masalasi bo'lganligi sababli, kreativlik bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etildi. Kreativlikni o'rganish masalalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlarda guruhlashtirish mumkin:

- birinchi yo'nalish kreativlikni yaratilgan mahsulotlar bo'yicha o'rganadi, bunda ijodiy mahsulotning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi: miqdori, sifati va ahamiyati (E.P.Torrens, A.V.Brushlinskiy, K.Shefer, T.Amabay, M. Ferson, K. Teylor, D. Teylor va boshqalar)ga asosiy e'tibor qaratiladi;
- ikkinchi yo'nalishda kreativlik jarayon sifatida o'rganiladi (V.I.Andreyev, P.Drepau, Ye.Ye.Tunik, A.V.Moroz, Barisheva, I.S.Bekeshova, A.R.Aripjanova, M.M.Kashapov, G.A.Sukerman). Har qanday jarayon, shu jumladan kreativ jarayon ham boshlanishi, davomiyligi, o'zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga ega bo'ladi. Bunday holda ob'ektiv yoki ideal kreativ mahsulot yaratilishi emas, kreativ fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi hamda tahlil etiladi;

Shaxs kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari E.E.Tunik [12], D.A.Leontev (13) ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda kreativ jarayon, kreativ shaxs, kreativ mahsulot va kreativ muhit kabi tushunchalarning o'ziga xos tahlili orqali shaxs ijodkorligining ijtimoiy-psixologik

masalalari va psixodiagnostikasi, kreativlik va intellekt o'rtasidagi aloqadorlik masalalari o'rganilgan.

A.R.Aripjanova ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish muammosini, G.Ibragimova interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish masalalarini, S.Q.Eshqobilova boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish masalalarini

Sanab o'tilgan tadqiqot ishlarida kreativlik yondashuv, qobiliyat, faoliyat turi sifatida o'rganilgan bo'lib, kreativ kompetentlikning alohida olingan elementlari tadqiq etilganligini ko'rsatadi.

Asosiy qism: Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, turli pedagogik yondashuvlar doirasida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari;

-malaka oshirish tizimini takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy kompetentligi muammosi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari;

-oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari tahlil etildi.

Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirishning mavjud holatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

-kasbiy faoliyatda kreativ potentsialni rivojlantirishga yo'naltirilgan kreativ kompetensiyani takomillashtirish zarurati muammosi;

-ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarini uzluksiz malaka oshirish jarayonini "hayot davomida o'qish" tamoyili bilan moslashtirishni nazariy-amaliy jihatdan yetarli darajada o'rganilmaganligi muammosi;

-zamonaviy gumanitar ta'limdagi innovatsion jarayonlarga yo'nalganlik sharoitida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik tayyorgarligini kuchaytirish muammosi;

-ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining metodik tayyorgarligi mazmuniga kreativ yondashuvni sifatli tatbiq etish, kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirish tizimida belgilangan malaka oshirish shakllarini resursli qo'llab-quvvatlash muammosi.

Sanab o'tilgan muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqot ishi mavzusini ilgari surdik.

So'nggi yillarda pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida kasbiy

kompetentlikning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, bo'lg'usi mutaxassislarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning kreativ qobiliyatlarni baholashning ilmiy asoslangan tizimlarini yaratish kabi muammolarning keng o'rganilishi zamonaviy ta'lim tizimlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan belgilanadi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilarida yangiliklar (innovatsiyalar)ga nisbatan ochiqlik, nostandart vaziyatlarda yechim topa olish va voqelikka ijodiy munosabat kabi shaxsiy xususiyatlarga talablar ortib borishi bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda dinamik ravishda o'zgarib boradigan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga tez moslashib, jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan kreativ shaxsni tarbiyalash amaliy muammo sifatida talqin etilishi pedagogik faoliyatda kreativ kompetentlikning komponentlarini aniqlash, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining kreativ kompetentligini samarali rivojlantirish, shaxsning ijodiy intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim oluvchilarni turli muhitga moslashishiga yordam berish vazifasini quyamoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda akmeologik yondashuv asosida hayot davomida ta'lim olish, uzluksiz kasbiy rivojlanishni amalga oshirishga yordam beradigan ta'lim shakllarini joriy etish; andragogik yondashuv asosida oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish; kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning didaktik tizimi; innovatsion yondashuv asosida talabalarning kreativ o'qitish metodikalarini ishlab chiqish; talabalarni o'z-o'zini anglashi va yangi bilimlarni o'zlashtirishiga rag'batlantiradigan kreativ o'quv muhitini yaratish; oliy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan metodlarni ishlab chiqish; integrativ yondashuv asosida oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tahlil etilgan tadqiqot ishlari natijalariga asoslansak, "kompetensiya", "kompetentlik", "pedagogik kompetentlik", "kasbiy kompetentlik" kabi murakkab tushunchalar mohiyati shunchaki bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishdan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi.

Psixologik-pedagogik manbalarda keng qo'llanilayotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari mazmun mohiyati bir-biriga yaqin bo'lsada, ularning o'rtasida aniq farqlar mavjudligini bir qator olimlar: N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, O.Musurmanova, N.A.Muslimov, O.Qo'ysinov, M.Mirsolieva, N.N.Karimovalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, tushuntirib beradilar. Ular "kompetentlik"ni shaxsning doimiy rivojlanib boruvchi sifatlaridan biri bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish uchun o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribasini, qadriyatlarini va qiziqishlarini safarbar etish imkoniyatlari sifatida talqin etadilar.

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga ijtimoiy-madaniy, kasbiy rivojlanish jarayonlarining natijasi sifatida pedagogik-psixologik tadqiqotlar orqali kirib kelgan bo'lib, kompetentlik shaxsning kutilmagan no'anaviy vaziyatlarda muloqotga kirishish, o'zaro kasbiy munosabatlarda yangicha yo'nalishni rivojlantirish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanish yoki ularni tahlil qilishda, rivojlanib boruvchi murakkab jarayonlarda ishtirok etishda qanday harakat qilish ko'nimalariga ega bo'lish va uni amalda namoyon etishda ko'rinadi.

Xorijiy adabiyotlarda kompetentlik tushunchasini “chuqur bilimga ega bo'lish”, “murakkab masalalarni yechish qobiliyati”, “kerakli vaziyatda tezkor fikr yuritish”, “muammoni yechishda yangicha fikrlash ko'nikmasi” kabi ma'nolarni anglatishi keltirib o'tilgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da kompetensiya so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: “kompetensiya (lot. competere-layoqatli, munosib bo'lmoq) 1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat. 2 Shaxsning biror bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi” [1].

“Oliy ta'lim lug'ati”da “kompetensiya (lot. competentia-huquq bo'yicha taalluqlilik).

- 1) muayyan davlat idorasining vakolati, huquq va majburiyatlari doirasi;
2. Masalalar doirasi, bunda muayyan amaldor shaxs bilimlar, tajribalarga ega bo'ladi.

Kompetentlik esa (lot. competens-tegishli, layoqatli); vakolatlik- 1. Muayyan ijtimoiy, kasbiy mavqega ega shaxslarning ular bajarayotgan vazifa va hal etayotgan muammolari mavjud murakkablik darajasiga bilimlari, layoqatlari va tajribalarining mos kelganlik darajasi. “Malaka” terminidan farqli o'laroq, ya'ni malakani tavsiflovchi sof kasbiy bilim va layoqatni o'z ichiga olishdan tashqari, yana sifat, tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommunikativ o'quv, ta'lim olish, baholash o'quvi, mantiqiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish layoqatlari kabi sifatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi” deb izohlanadi [2].

Kasbiy kompetentlik bilimlarni egallash, ko'nikmalarni rivojlantirish, pedagogning o'z ustida ishlash malakasiga egaligida namoyon bo'ladi va mustaqil faoliyat davomida takomillashib boradigan sub'ektning kasbiy salohiyat hisoblanadi. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi turlicha izohlanadi: ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish qobiliyati, malaka va mahorat birlashmasidagi inson ko'nikmalari (A.K.Markova), kasbiy ma'lumotlilik darajasi, insonning kasbiy tajribasi va ma'lumotlilik darajasi, tajriba va individual qobiliyatlar yig'indisi, kasbiy bilimlar, mahorat, o'ziga xoslikning kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishi (B.S.Gershunskiy) sifatida izohlanadi.

E.F.Zeerning fikricha, “kompetentlik” murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik kategoriya bo'lib, uning tuzilmasini kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar, kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar kabi to'rtta kichik guruhga ajratib ko'rsatish mumkin [3].

A.K. Markovanning fikricha [4], kasbiy kompetentlik pedagogik faoliyatni oliy darajada amalga oshira oladigan o'qituvchi mehnati, pedagogik muloqoti, o'qituvchi shaxsining salohiyati, mehnat faoliyatining umumlashmasi sifatida o'qituvchining shaxsi (protsessual ko'rsatkichlar), ta'lim darajasi-ta'lim olganlik, tarbiya darajasini anglatadi va ularning har biri o'z tarkibiga pedagogik bilimlar, mahorat, kasbiy psixologik pozitsiya, psixologik o'ziga xoslikni jamlaydi. Muallifning tadqiqotlarida maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish); shaxsiy kompetentlik (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish); individual kompetentlik (o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish, yangilik yaratish); ijtimoiy kompetentlik (qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish) ajratib ko'rsatiladi.

N.V. Kuzmina [5] kasbiy-pedagogik kompetentlikni besh turdagi kompetentlikka ajratadi: dars beradigan predmeti sohasidagi kompetentlik; metodik kompetentlik (bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usulini qo'llay olish); ijtimoiy-psixologik kompetentlik (muomala qilish jarayoni); differensial-psixologik kompetentlik (ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida); autopsixologik kompetentlik (shaxsning o'z kamchilik va yutuqlarini baholay olishi).

O'zbek pedagogikasi nazariyasida kompetensiya, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik muammolarini o'rganishda o'ziga xos ilmiy maktab yaratilgan. N.A.Muslimov [6] kasb ta'limi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning texnologiyasini, T.T.Shoymardonov [7] pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimini, J.A.Hamidov [8] bo'lajak kasb ta'limi tinglovchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasini, O'.Qo'ysinov [9] kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalarini, M. Mirsolieva[10] oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilib bergan.

N.N.Karimovanning [11] tadqiqotlarida pedagogik kompetentlik o'qituvchining kasbiy-psixologik xususiyati, pedagogik faoliyatni tashkil etish va boshqarishda sub'ektiv shart-sharoitdagi amaliy-nazariy harakatni ifodalovchi sifatlar yig'indisi deb tushuntiriladi, kompetensiya tushunchasi esa malakalar zahirasi, bazasi degan ma'noni anglatishini asoslab beradi. Muallif pedagogik-kasbiy kompetentlik tarkibiga ijtimoiy, individual, ekstremal, psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ, texnologik kompetensiyalarni kiritadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlarning umumiy xulosalariga tayanilsa, kreativ kompetensiya kasbiy kompetensiyaning asosiy turlaridan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Gnoseologik yondashuv - ilmiy bilish tabiat, jamiyat va inson haqida tasdiqlangan bilimlarni yaratishga qaratilgan faoliyat turi sifatida tabiiy, ijtimoiy,

ruhiy-ma'naviy jarayonlar mohiyati va qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun bir qancha maxsus tushunchalar, tamoyillar va tadqiqot usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Ilmiy bilishning asosiy maqsadi ob'ektiv haqiqatga erishish bo'lib, bunda isbotlash, tasdiqlash, tadqiqot natijalarining asoslanganligi, xulosalarining ishonchli bo'lishi ahamiyatlidir. Ilmiy bilish yangi g'oyalar, tasavvurlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida inson va borliq voqealar o'rtasidagi o'zaro munosabat va ta'sir jarayonini o'rganish ob'ekti sifatida talqin qiladi.

Bu yondashuv vakillari kreativlikni rivojlantirishda nazariy bilish darajasida aql, tushunchalar, tamoyillar, nazariyalar kabi tafakkur shakllari bilan ishlash ustuvor faoliyatga aylanishi lozimligini ta'kidlab, kreativ potentsialni rivojlantirishda hissiy bilish akliy tafakkur uchun empirik, hissiy – tajribaviy zamin bo'lib xizmat qilishini ta'kidlashadi. Chunki nazariy bilish asosida ob'ektning ichki xossalari va qonuniyatlari o'rganiladi, bevosita hissiy idrok qilib bo'lmaydigan tomonlar, qoidalar, aloqadorliklar kashf etiladi, tushuntiriladi. Bunda empirik darajada olingan faktlar, ma'lumotlar va bilimlar tafakkurning shakllari bo'lgan tushunchalar va tamoyillar orqali tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, ob'ektning xossalari tushuntiriladi, qonunlar va qonuniyatlar kashf etiladi va u kreativ tafakkur orqali amalga oshiriladi.

Tizimli yondashuv shaxsning tizimli shakllanishida kasb va bilim egallash faoliyatiga, kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga, kasb tanlashga qiziqish va ehtiyojlardan kelib chiqish zarurligini e'tirof etadi.

Tizimli yondashuv vakillari tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funktsiyani bajarishga bo'ysundirilgan alohida elementlarning bir butun ketma-ketligini tizim deb qarab, ob'ektiv borliqdagi barcha narsa, hodisalar, jarayonlar, faoliyat shakllari ham o'ziga xos tizimlarni tashkil etishini ilmiy asoslab berishgan. Tizimli yondashuv tamoyilining o'ziga xos, ancha murakkab xususiyatlari mavjud. Har qanday tizim ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo'lib, ayni vaqtda o'zi ham, o'zidan yuqori pog'onada turgan tizimga qism bo'lib kiradi. Uning qismlari bir pog'ona pastdagi tizimlar hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Bu hodisa chekli va cheksiz bo'lishi mumkin.

Tizimni tashkil qiluvchi qismlar deb faqat o'zaro uzviy (funktsional) aloqadorlikda bo'lgan qismlarga aytiladi. Tizimni tashkil qiluvchi qismlarning bir xususiyati o'zgarisa, shu tufayli boshqa qismlarning ham xususiyatlari o'zgarishlarga uchrasa, u funktsional aloqadorlik deyiladi. Tizim xususiyatlari faqat boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Har qanday tizim asosini aloqadorliklar tashkil qilib, ular o'z asoslariga nisbatan tartibli va tartibsiz, harakatchan va statsionar, qarama-qarshi va ko'p tomonlama, nuqtaviy, chiziqli, tiklanuvchan va tiklanmaydigan, oddiy va murakkab, determinlashgan, markazlashgan va markazlashmagan, bir yoki ko'p pog'onali hamda hokazo tarzda bo'ladi. Tizimli yondashuv tamoyillariga ko'ra,

o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati o'ziga xos tizim bo'lib, bu tizim o'z tarkibiga pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiyalarni, kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni ham qamrab olishiga e'tibor qaratiladi. O'qituvchining kreativ kompetensiyasi mana shu tizimning bir elementi sifatida faoliyat, mahorat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan o'zaro funktsional bog'liq holda rivojlanadi. V.V.Morozov pedagogik faoliyat tizimida kreativlikni o'qituvchini novatorlikka undovchi pedagogik kategoriya sifatida ko'rsatib, kreativ kompetentlik va o'qituvchining konstruktiv (loyihalash) faoliyatiga oid malakalari shakllanishini, o'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni tuzish talablarini va uning eng maqbul variantini har bir dars mavzusiga bog'liq holda loyihalashini tizimli yondashuv bilan bog'lab tushuntiradi.

Texnologik yondashuv – ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etishda ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini kafolatlash, ta'lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, talaba va pedagog o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarning mazmuni, aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirishni ilgari suradi. O'qituvchining kreativ kompetentligini rivojlantirishda texnologik yondashuv tamoyillariga asosan texnik-texnologik malakalar shakllanadi va faoliyat jarayonida takomillashib boradi.

Integrativ yondashuv ta'limning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligiga asoslanib, ta'lim mazmunini integratsiyalash ya'ni o'zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ularni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirish, o'rganilayotgan ob'ektlarning xususiyatlarini tizimlashtirishni nazarda tutadi. P.Drapeau, V.V. Moroz, N.V.Vishnyakova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida kreativlik - o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasi sifatida qaraladi va izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar shakllanishini tushuntirishda ushbu nazariy yondashuv asos sifatida olinadi.

Innovatsion yondashuv asosida o'qituvchining kreativ faoliyatida ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish jarayonlari tahlil etiladi. Innovatsion yondashuv pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishning o'ziga xosligini, pedagogik innovatsion faoliyatni namoyon bo'lishida ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;

pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;

mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish; o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish; hamkasblar bilan hamkorlik;
fikir almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish" [83;20]
kabi malakalarni shakllanishini tushuntiradi.

Pedagoglarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy jarayoni: tashkil etish; hamkorlikda olib borish; rivojlantirish; tahlil qilish; qiyoslash; umumlashtirish; xulosa chiqarish; boshqarish; nazorat etish; baholashni ilmiy asoslashga yordam beradi.

Pedagogning yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
novatorlik darajasi;
kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
ijodkorligi, ijodiy faollik; faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
yangicha fikrlash;
yuksak muomala madaniyati, innovatsion faoliyati innovatsion yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Individual-faoliyatli yondashuv kasbiy faoliyat sharoitlari bilan bog'liq qobiliyatlarni shakllantirish muammosi, muhim kasbiy jihatlarning shakllanishida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar darajasi, shaxsning faoliyat borasidagi qiziqishlari, maqsadlari va faoliyat tizimi, o'qituvchining innovatsion faoliyati, talabaning faol o'quv bilish faoliyati, pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati asoslarini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Kasbiy ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish malakalari, pedagogning kasbiy-shaxsiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari individual-faoliyatli yondashuv tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Akmeologik yondashuv – insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadigan nazariy yondashuv sifatida individ, shaxs, individuallik va sub'ektning kasbiy faoliyati haqidagi fanlar integratsiyasidan tashkil topgan. Akmeologik yondashuvga ko'ra, shaxs kasbiy faoliyatida o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish masalalarida kreativ qobiliyatlarning sub'ekti sifatida qarab chiqiladi. O'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarish asosida insonning yangi muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyoji, faol hayot tarafdori bo'lish, ezgu fikrlash, o'z imkoniyatlariga ishonish, hayot mazmunini tushunish yotadi. Yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, kasbiy faoliyat

natijalari, ijtimoiy tan olinish, o'z ertukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni shakllantirish akmeologik yondashuvning asosini tashkil etadi.

Kasbni egallash, ijtimoiy va mehnat faoliyati, ta'lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish;

refleksiya, ijodiy tafakkur qilish, ta'limni ichki ehtiyojga aylanishi, bilish motivlarining rivojlanishi ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Akmeologik yondashuv kasbiy kommunikativ sifatlar va malakalarni tarkib topishini ilmiy asosda tushunishni ta'minlaydi.

Xulosa

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish ta'lim jarayonida muhim yo'nalish bo'lib, ko'plab fanlarni qamrab oladi. Ushbu fanlarni o'qitishda yangicha yondashuv ham muhim hisoblanadi. Sababi, o'quvchilar ijtimoiy fanlarni o'rganish va tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun fan sohasiga yangicha metod hamda usullarni joriy qilish ahamiyatli bo'lishi mumkin. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, ushbu yangiliklarni joriy qilishda fan sohasida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelish mumkin, xususan, texnologik, yosh xususiyatlar, o'zlashtirishdagi muamolar va.h.k. o'qituvchi esa, ushbu muamolarni hisobga olgan holda novatorlik qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. T. 2003. 378 b.
2. Sones T.P. Creative learning in perspective. London Press, 1992.-178 pg.
3. Львова И.В. Психологические факторы развития креативности личности : Дис. ... канд. психол. наук : 19.00.01 Кемерово, 2005 203 с. РГБ ОД, 61:05-19/521
4. Mustafayeva D.A. Ixtisoslik fan o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish (ixtisoslik fan o'qituvchilari malaka oshirish kurslari misolida). /13.00.05-Kasb-hunar ta'limi metodikasi. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. T.-2020.-203 b.
5. Креативность как ключевая компетентность ўқитувчии. Монография / Под ред. проф. М.М. Кашаповы, доц. Т.Г. Киселевой, доц. Т.В. Огородовой. Ярославль: ИПК «Индиго», 2013. – 392 с.
6. irsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. // 13.00.07-Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.:2019.- 65 b.
7. Shodieva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish texnologiyalarini takomillashtirish.

- 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha mavzusidagi p.f.d. (DSs) doktorlik dissertatsiyasi. T.: -2022.- 257 b.
8. Креативная педагогика. Методология, теория, практика / под ред. д. т. н., проф. В. В. Попова, акад. РАО Ю. Г. Круглова. — 3-е изд. — М. : БИНОМ. Л22аборатория знаний, 2012. — 319 с. :
9. O'quvchi-yoshlarni «ommaviy madaniyat» xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. Safarova R.G., R.X.Djuraev va b.,/ Toshkent. «Tafakkur qanoti», 2017. – 200 b.
10. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati /Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.-736 b.
11. Kaldibekova B., Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. // -Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2009.-80 b.
- 12.сопровождение одаренного ребёнка/Пер. с нем. А.П.Голубова.-М.: Издат. Центр «Академия»,2002.-
- 13.Epstein, R. Generativity theory and creativity. In M. A. Runco & R. S. Albert (Eds.), Theories of creativity (pp. 116-140). Newbury Park, CA: Sage Publications; Cresskill, NJ: Hampton Press. 2005